

## SOTSIAL SEMALI LEKSEMALAR TIZIMIDA GRADUONIMIYA HODISASI

**Qobilova Mahbuba Muminjonovna**

DTPI o'zbek tili va adabiyoti kafedrası  
tayanch doktoranti

E-mail: qmahbuba95@gmail.com

ORCID ID: 0009-0000-1390-9748

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377534>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilidagi graduonimiya hodisasi, xususan, sotsial semali leksemalarning ma'noviy darajalanish qatorlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bir qator olimlarning graduonimiya masalasiga oid qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada sotsial semali leksemalarda (yosh, jins, qarindoshlik xususiyatlarini ifodalovchi so'zlar) graduonimik qatorlar aniqlandi va ularning xususiyatlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** Graduonimiya, darajalanish qatori, gradual oppozitsiya, semantik tizim, sotsial sema.

Graduonimiya lug'aviy birliklarning o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil qiladi. Bunda bir necha so'zning yoki belgining oz-ko'pligiga qarab lug'aviy-ma'noviy qatorda tizim sifatida joylashadi. Odatda, graduonimik qator alohida bir yetakchi so'z atrofida birlashadi va miqdorning oz yoki ko'pligiga qarab o'sib boradi. Til onging shakliy jihati bo'lganligi bois, u ongdagi aks ettirilgan miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim.

B.Mengliyev graduonimiya (yun. *gradatio* – ko'tarilish, o'sish, *onymo* – nom) lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi va uning yorqin namunasi o'rta so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatori ekanligi, gradual qatorni ajratishning lisoniy, ma'noviy omillari zarurligi, darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjudligi[3; – B.169] ni ta'kidlab o'tgan.

Sotsial semali leksemalarda yosh, jins, qarindoshlik xususiyatlarini ifodalagan graduonimik qator mavjud. Masalan, *chaqaloq* → *go'dak* → *bola* → *o'smir* → *o'spirin* (yosh xususiyatini anglatuvchi); *yigit* → *erkak* → *chol*, *qiz* → *ayol* → *kampir* (jins xususiyatini anglatuvchi); *nabira/nevara* → *evara* → *chevara* (qarindoshlik xususiyatini anglatuvchi) kabi.

### 1-jadval

#### Sotsial semali leksemalarning gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	Yosh xususiyatini ifodalovchi	Ko'rsatk ichlar	Qarindoshlik xususiyatini ifodalovchi	Ko'rsatk ichlar	Jins xususiyatini ifodalovchi
1	<b>chaqaloq</b> - yangi tug'ilgan bola; go'dak [O'TIL, VI, 731-b.]	1	<b>nabira/nevara</b> - o'g'il yoki qizning farzandi (bobobga, buviga nisbatan) [O'TIL, III, 323-b.]	1	<b>yigit</b> - jinsiy va jismoniy jihatdan voyaga yetgan erkak [O'TIL, VI, 192-b.] <b>qiz</b> - ayol jinsiga mansub farzand [O'TIL, IV, 181-b.]
2	<b>go'dak</b> - emadigan, ko'krakdan ajratilmagan, odatda, bir yoshgacha bo'lgan	2	<b>evara</b> - nevaraning bolasi (boboga, buviga nisbatan) [O'TIL, II, 78-	2	<b>erkak</b> - ayn. er [O'TIL, II, 56-b.] <b>ayol</b> - umuman erkakka qarama-qarshi

	bola; chaqaloq [O'TIL, II, 274-b.]		b.]		jinsdagi shaxs; xotin [O'TIL, I, 199-b]
3	<b>bola</b> - hali yosh, voyaga yetmagan odam [O'TIL, I, 521-b.]	3	<b>chevara</b> - evaranimg farzandi - o'g'li yoki qizi [O'TIL, VI, 769-b.]	3	<b>chol</b> - qari er kishi; qariya; keksa, mo'ysafid [O'TIL, VI, 812-b.] <b>kampir</b> - yoshi ulg'aygan, keksa, qari xotin [O'TIL, II, 740-b.]
4	<b>o'smir</b> - bolalikdan balog'at yoshiga o'tish davridagi, 12-16 yoshdagi bola [O'TIL, ,452-b.]				
5	<b>o'spirin</b> - balog'at yoshiga yetmagan yosh yigit [O'TIL, VI, 453-b.]				

O.Bozorov darajalanishni ulg'ayishning oshib borishiga ko'ra ma'noviy nomlanishini *chaqaloq* → *go'dak* → *bola* → *o'smir* → *yigit* → *erkak* → *chol* [4; - B. 22] kabi ifodalagan bo'lsa, M.Narziyeva otlarda qarindoshlik, yosh hamda umumiy xususiyatlarni ifodalovchi gradual oppozitsiya mavjudligini ta'kidlaydi: *chaqaloq* → *go'dak* → *bola* (*o'g'il/qiz*) → *o'smir* → *o'spirin* → *yigit/qiz* → *erkak/ayol* → *qariya* (*chol/kampir*); *qiz* → *juvon* → *xotin* → *kampir*; *bobo/buva/ena/buvi* → *ota/ona* → *bola/farzand/qiz/o'g'il* → *nevara* → *evara* → *chevara*[5; - C.10-14]. Shaxsni ifodalovchi yosh shkalalarining tashkil etuvchi birliklari o'sib boruvchi xususiyatga ega, chunki bu jihat g'oyaviy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar asosida shakllanadi hamda o'zbek tili lug'aviy tizimiga bolalik, yoshlik, yetuklik/o'smirlik, keksalik davrlari ajratiladi[1; -B.61]. O'zbek tilida qavm-qarindoshlik darajasining uzoq/yaqinlik belgisiga ko'ra *nabira/nevara* → *evara* → *chevara* → *ovora* → *begona* kabi darajalanish qatori qo'llansa-da, O'TIL (2 jildli va 6 jildli)da *ovora*, *begona* leksemalariga nisbatan qavm-qarindoshlik munosabatlarining izohlari mavjud emas. Shuningdek, o'zbek tilining ta'limiy korpusida *bobo* leksemasining darajalanish qatorining so'ngida *duvara* leksemasini ham uchratish mumkin[2].

Xulosa, so'zlar ma'noviy belgisi, miqdori va bo'yog'iga ko'ra graduonimik qatorni hosil qiladi. Darajalanish qatorida belgining miqdordan sifat o'zgarishiga o'tishi, darajalanishning ikki uchi bir-biriga nisbatan antonimlikni namoyon qilishi hamda bir yetakchi so'z atrofida birlashib bir butunlikni tashkil etishi kuzatildi. Darajalanish qatori faqat *sifat* so'z turkumida emas, *ot* so'z turkumida ham mavjudligi aniqlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dustmamatova N. O'zbek va rus tillarida lug'aviy graduonimiya. Filol. fan. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2023. – B.61
2. <https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=bobo>
3. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. –B.169.



4. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 22.
5. Нарзиева М.Д. Семантическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – С.10-14.
6. Кобилова М. Characteristics of monosemantic lexemes with personal semas //Лингвоспектр. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-150.
7. Qobilova M.M. O'zbek tilining izohli lug'atlarida qarindoshlik terminlarining berilishi //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2023. – С. 204-206.
8. Boymirzayev, A. (2024). SO 'ZNING LEKSIK MA'NOSI VA VALENTLIK IMKONIYATI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 4(6-1), 84-88